

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MATN USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH ORQALI FUNKSIONAL SAVODXONLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Bakayeva Rayxon Izatovna,
Buxoro viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodist

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali funksional savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish, uning ijtimoiy - psixologik zarurat ekanligi, ta'limga zamonaviy yondashuvlar orqali ona tili darslarida matn ustida ishlashda o'quvchilarning funksional savodxonlik darajasini oshirish, shaxsning muomala - muloqot madaiyatini egallashi, o'zida muomala texnikasini ongli va to'g'ri shakllantira borishi, o'quvchida xavotirlik, hadiksirash, odamovilik, muloqotdan qochish kabi salbiy xususiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi, uni mustaqil fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, muloqot erkinligi, og'zaki va yozma fikr ifodalash, matn yaratish qobiliyatini oshishiga imkoniyat yaratuvchi interfaol mashq va ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanishning dolzarbligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, matn, hikoya, tasviriy, muhokama matnlari, usul, metod, zamonaviy yondashuv, kommunikativlik, kognitiv va ijodiy faoliyat, interfaol ta'lim texnologiyalari, funksional savodxonlik komponentlari.

Аннотация: В этой статье рассматривается развитие навыков функциональной грамотности путем обучения учащихся работе с текстом на уроках родного языка, что является социально - психологической необходимостью, повышение уровня функциональной грамотности учащихся при работе над текстом на уроках родного языка с помощью современных подходов к обучению, развитие навыков функциональной грамотности человека при работе с текстом на уроках родного языка. - от интерактивных упражнений и социально-психологических тренингов, которые служат для устранения у школьника таких негативных черт, как тревожность, озабоченность, человечность, избегание общения, дают ему возможность самостоятельно мыслить, отстаивать свое мнение, свободу общения, выражать устную и письменную мысль, повышать умение создавать текст. речь идет об актуальности использования.

Ключевые слова: функциональная грамотность, текст, повествовательная, изобразительная, дискуссионные тексты, метод, метод, современный подход, коммуникативность, познавательная и творческая деятельность, интерактивные образовательные технологии, компоненты функциональной грамотности.

Annotation: in this article, the development of functional literacy skills by teaching students to work on text in mother tongue lessons, the fact that it is a socio - psychological necessity, increasing the level of functional literacy of students when working on text in mother tongue lessons through modern approaches to education, the treatment of an individual - it talks about the relevance of interactive exercises and the use of Social Psychological trainings, which serve to eliminate such negative features as the acquisition of communication culture, conscious and correct formation of the technique of communication in oneself, anxiety, hadiksirash, humanity, avoidance of communication, make it possible to increase independent thinking, defense of one's own opinion, freedom of communication, expression of

Keywords: functional literacy, text, story, imagery, discussion texts, method, method, modern approach, communicativity, cognitive and creative activity, interactive educational technologies, functional literacy components.

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi til ta'limi tizimida o'quvchilarning yuqori va chuqur bilim egasi bo'lishlari uchun keng qamrovli sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yangi ko'nikmalarga ega, yangi munosabatlar qurib va o'z zimmasiga yangi vazifalar olib, teran bilimlarini yangi vaziyat va tajribalarda qo'llash, tez o'zgarayotgan dunyoda o'zgaruvchan kontekstlarda uzluksiz o'qib o'rganishga qodir bo'lgan kishilar juda muhim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF- 4947-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-son qarori o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qator talablar qo'yilganini tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi axloqiy-ma'naviy tarbiya bo'lib, bu shaxsning shaxsiy imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, axloqiy va ma'naviy tarbiya shaxsning jismoniy, aqliy, ma'naviy, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishida uyg'unlikka erishishga imkon beradi. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaning natijasida insonda ziyolilik, madaniyat hissi shakllanadi. D.S.Lixachev "Kishi qanchalik

ziyoli bo'lsa, u shuncha ko'p tushunadi va o'zlashtiradi, uning dunyoqarashi va qabul qilish doirasi shunchalik kengayadi" degan edi. Madaniyat ijodiy faoliyat ham hisoblanadi, uning yordamida insonda ilmiy tafakkur qilishning uzluksizligi, mantiqiylik shakllanadi.

O'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish haqida juda ko'p gapirilmoqda, o'qituvchilar uchun o'z amaliyotlarida ushbu masalaga e'tibor berish, o'quvchilarning funksional savodxonlik darajasini oshirish eng dolzarbdir. Har kuni farzandlarimiz oldida nafaqat hal etilishi, balki oqilona va favqulodda yechimini topishi kerak bo'lgan juda ko'p vazifalarga duch kelmoqda. O'qituvchi oldiga esa yangi vazifalar, ya'ni o'quvchilarni muammolarni nafaqat malakali yechish, balki xulosa chiqarish, to'plangan bilimlarni tizimlashtirish, kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda olishga o'rgatish turibdi.

Ona tili darslari asosida o'quvchilarga ta'limning samarali strategiyalarini egallashda va metakognitiv, o'z – o'zini anglash, o'z – o'zini boshqarish va o'z – o'zini moslashtirish kabi qobiliyatlarni egallashda yordam berish o'qituvchi oldida turgan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, o'quvchilarning nutqini rivojlantiruvchi asosiy ta'limiy vositalardan biri bu matn sanaladi. 10-11sinf "Ona tili" darsliklarida matn turlari haqida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

"Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish. Ana shunga ko'ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Hikoya matni.
2. Tasviriy matn.
3. Muhokama matni.

Ta'limning rivojlanuvchi va takomillashib boruvchi texnologiyasi boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham keng miqyosdagi umumpedagogik vazifani bajaradi. O'quvchi nutqiy mahoratining yuksalib borishi - ona tili ta'limi mazmuni, o'quv jarayoni va uning to'g'ri shakllantirilishiga bog'liqligi isbot galab qilmaydigan haqiqat bo'lsa, nutq tilning ifoda vositalaridan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir. U nutq a'zolarining ongli harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi.

Demak, nutqning vazifasi-ong, xotira va tafakkurning uyg'unlikdagi faoliyati mahsulini barcha uchun tushunarli, adabiy me'yoriy shaklga kiritish, uni moddiylashtirish (axborotga aylantirishdan) va tinglovchiga yetkazishdan iborat. Shu bilan bir qatorda ona tili o'qitish metodikasi lingvodidaktik asoslarga ham egaki, bunda til birliklarini nafaqat grammatik xususiyatlariga balki lug'aviy ma'nolariga ham asoslangan holda o'rganish, umumiy va xususiy hodisalarni farqlash, so'z boyligini oshirish, og'zaki nutq, mustaqil matn yaragish ko'nikmalarini shakllantirish, uning rang-barangligi va uslubiy ravopligiga erishish ko'zda tutiladi.

Qanday qilib o'quvchini o'qishga qiziqtirish, katta hajmdagi ma'lumotlar va matn bilan ishlashga o'rgatish mumkin? Faol kognitiv faoliyatni qanday rag'batlantirish mumkin? O'rganishga ijobiy munosabatni qanday shakllantirish mumkin? Funksional savodxonlikni qanday rivojlantirish mumkin? Tabiiyki, o'qituvchilarda bunday savollar paydo bo'ladi. Demak, kognitiv, aqliy faollikni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonining samarali shakllari, o'z navbatida har bir o'quvchining bilimlarini boyitishga, uning funksional savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan faol o'qitish uslublari va usullariga ehtiyoj bor.

Darhaqiqat, yetuk, barkamol kadr bo'lib yetishish uchun o'quvchi nafaqat o'z iqtidori, bilimi va nutqiy malakasini oshirishi zarur, balki o'zi yashayotgan jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor bo'lmog'i, ijtimoiy faoliyat yuritish va uni boshqarishning ilmiy qonuniyatlari va qoidalarini mukammal egallamog'i zarur.

Boshqaruv, marketing va menejment sohalarida, ayniqsa, inson omili va unga ta'sir o'tkazish, uni boshqarishning psixologik tizimini bilish - jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish - uni kamol topdirish yo'lidir. Bu o'rinda, ayniqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va ilmiy-ijodiy munosabatlarning shakllanishini, o'quvchi shaxsining o'ziga va o'zgalarga ta'sir etish mexanizmlaridan biri - ijtimoiy muloqot va uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lmish nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ijodiy fikrlash, mustaqil matn yaratish texnologiyasini mukammal egallashi davr talabidir.

Matn yaratishga yo'naltiruvchi lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga keng joriy etish, o'quvchi ongida so'z boyligini oshirish, qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil fikrlash, so'z tanlash va mustaqil fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga yordam beradi. Shunday ko'nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirish va rivojlantirish esa, o'quvchi nutqiy mahoratining oshib bborishi, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'lamining kengayishi hamda matn yaratish ko'pikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali funksional savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan o'qitishning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanishni talab qiladi. Ushbu shakl va usullarni qo'llagan holda biz tashabbuskor, mustaqil, ijodiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Agar ilgari darslarda o'qituvchi o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish, boshlang'ich ko'nikmalarni

shakllantirish, imlo hushyorligiga e'tibor berishga harakat qilgan bo'lsa, endi ta'lim mazmunini yangilash doirasida darsni faqat o'quv maqsadlari bilan cheklab bo'lmaydi. Zamonaviy voqelik o'quvchida nafaqat fan bo'yicha bilimlarni egallashni, balki uni turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llashni, hayoti davomida o'qib o'rganishini va buni o'z xohishiga ko'ra bajarishini ham talab qiladi. Ijodkor kishi o'z-o'zini tarbiyalashi va mustaqil ta'lim olishi, tahlil, sintez usullariga ega bo'lishi, xulosalar chiqarishi, fikrini asoslashni bilishi kerak. Bularning barchasi insonga funksional savodxonlik berishi mumkin.

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari zimmasiga yosh avlodning funksional savodli kishilar qilib tayyorlashda katta mas'uliyat yuklanadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallash uchun sharoit yaratishdir. Demak, zamonaviy dars - bu darsda o'qituvchi o'quvchi faoliyatini yo'naltiruvchi koordinator, o'quvchi esa bilimlarni mustaqil o'zlashtiruvchi sub'ekt vazifasini bajaradi. Aynan u kundalik hayotda qo'llashi mumkin bo'lgan bilimlar bilan funksional savodxonlik shakllanadi.

Har bir o'quvchini faol kognitiv va ijodiy faoliyatga jalb qilish maqsadida faol aqliy faoliyat va o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yangi texnologiyalar yordamida dars etaplari tashkil etiladi. O'qituvchi tomonidan dars yaxlit holatda tasavvur etilib dars jarayoni loyihalashtiriladi. Dars jarayonidan qo'llaniladigan usullar va metodlar tanlab olinadi. Bunda guruhdagi o'quvchilarning soni, bilim darajasi, o'zlashtirishi hisobga olinadi. O'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib tanlangan metodlar yordamida o'quvchi shaxs sifatida ta'lim markaziga chiqariladi va o'qitish samaradorligini oshirish imkoni yaratiladi. Darsda zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil, erkin fikrlashiga, izlanishiga, har bir topshiriqqa ijodiy yondashishi, mas'uliyatni sezishi, tahlil qilishi, turli axborot manbalaridan unumli foydalanishiga sabab bo'lib, o'quvchining bilim olishga va kelajakda kasblarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday natijaga erishish uchun o'quv jarayonida interaktiv metodlardan o'z o'rnida foydalanish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda bu metodlarning yuzdan ortiq turlari mavjud. Ular orasida "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat", "Sinkveyn", "Aql charxi" "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli", "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, "FSMU", "BBB" metodlari juda keng qo'llaniladi va dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarda funksional savodxonlik komponentlaridan biri bo'lgan o'qish savodxonligi ko'nikmalarini, ya'ni matndan ma'lumotni topish va ajratib olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun "Davom ettir" metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar matnni diqqat bilan ongli ravishda o'qib chiqishi, berilgan fikrlarning davomini topish uchun matndan zarur bo'lgan parchani topishi kerak bo'ladi. Ushbu metod o'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatish bilan birga, esda saqlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi, darslik bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, 10-sinf Ona tili darsligida o'quvchilarga mustaqil bajarishi uchun topshiriq berilgan. Bunda o'quvchilar A.Avloniyning "Tarbiya zamoni" matni bilan tanishib chiqib, matn va hayotiy kuzatuvlar asosida xulosalarini yozishi kerak. O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishib chiqqach, ularga jumalarning davomini topish vazifasi beriladi. Berilgan gaplarning 2 qismini matndan topgach, o'quvchi ushbu fikrga o'z munosabatini bildiradi, hayotiy kuzatuvlaridan kelib chiqib, muallifning tarbiya haqidagi fikrini izohlaydi.

Matn bilan ishlashda foydalaniladigan metodlardan yana biri "2 qismli kundalik" metodi hisoblanadi. Matn bir marta o'qilgach, o'quvchilarga 2 qismli jadval chizish taklif etiladi. 1-qismga matnda o'quvchilarga yoqqan va yoqmagan parchalar, gaplar, jumla yoki so'zlar yoziladi. 2-qismda o'quvchilar shu fikrlarga o'zlarining shaxsiy mulohazalari, izohlarni yozadilar. Bu o'quvchilarning kitobxon sifatida fikrlarini bayon qilish, izh berish, asarga baho berishining yozma shaklidir. Kundalik aslida insonning fikrlari, tuyg'ulari, o'zi ishtirok etgan voqealari bayon etiladigan daftar hisoblanadi. Bu daftarga inson odatda samimiy fikrlarini yozadi, o'z-o'zini tahlil qiladi. Matn o'qish jarayonida o'quvchi fikrlaydi, xayol suradi, tasvur qiladi, voqea va uning qahramonlariga munosabat bildiradi. Darsda bu metoddan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'qiganlariga qiziqish, shaxsiy fikr bildirish, qahramonlarni tahlil qilish, munosabat bildirish istagi uyg'otilsa, demak o'quvchilarda o'qish savodxonligi shakllantirilgan. Tanlangan matn avvalo o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, mulohaza qilishga undashi kerak. Masalan, 10-sinf Ona tili darsligida berilgan 4.4- mashqda "Maktabni bitirgach, qay yo'ldan borgan ma'qul: oliy ta'limda o'qish yoki ishga kirish?" argumentli esse bilan tanishib chiqish tavsiya etilgan.

Ona tili darslarida o'quvchilarda kommunikativ savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda FSMU metodidan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu metod o'quvchilar o'rganilayotgan mavzuni muhokama qilish, o'z fikrlarini erkin bayon qilish, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatish, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga, o'quvchilarni erkin fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, ochiq holda bahslashish va bahs-munozara madaniyatiga o'rgatadi.

10-sinf Ona tili darsligida o'quvchilarga turli jamiyatlarga xos odat va tartiblar bilan tanishib chiqish topshirig'i berilgan. Matndan so'ng 7.2-mashqda "Yuqoridagi odat va tartiblarga munosabat bildiring. Ulardan qay birini bizning jamiyatga ham tatbiq qilish kerak deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang va og'zaki bayon eting.

Gapirish chog'ida adabiy til me'yorlariga amal qiling." vazifasi berilgan. Ushbu vazifani bajarishda FSMU metodidan foydalanish mumkin. Har bir o'quvchiga FSMU metodining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi. Bunda F- fikrni bayon etish,

S- fikrning bayoniga sabab ko'rsatish,

M- ko'rsatilgan sababni isbotlab misol(dalil) keltirish,

U- fikrni umumlashtirishni nazarda tutadi.

O'quvchi yakka tartibda o'z fikrlarini yozma bayon etadi. O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi. Kichik guruhlariga har bir qog'ozda yozilgan fikrlarni umumlashtirib katta formatdagi qog'ozga yozishni taklif etadi. O'quvchilar fikrlarni o'rganib chiqadilar va umumlashtirib, jamoa sifatida o'z fikrlarini himoya qiladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali funksional savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishda uchta asosiy vazifani hal qilish mumkin:

1.O'quvchining potensialiga mos keladigan, shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydigan ta'lim darajasiga erishish;

2.Har bir o'quvchining aktdan foydalangan holda o'z qobiliyatlarini namoyon etishda ijodiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat tajribasini shakllantirish;

3.O'quvchilarning insonparvarlik munosabatlar asosida muloqot va o'zaro ta'sir tajribasini boyitish.

O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'quvchilarning funksional savodxonligini muvaffaqiyatli rivojlantirish va darslarida asosiy hamda fan kompetensiyalariga erishishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- mashg'ulotlar faoliyatga asoslangan bo'lishi;

- o'quv jarayoni o'quvchining mustaqilligi va o'z faoliyati natijalari uchun javobgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

- maqsadga erishishda tajriba orttirish imkoniyati bo'lishi;

- jamoaviy ishning samarali shakllaridan foydalanish kerak.

Ona tili darslarida o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali funksional savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishda ijtimoiy — psixologik omil sifatida shaxsning muomala — muloqot madaiyatini egallashi, o'zida muomala texnikasini ongli va to'g'ri shakllantira borishi, o'quvchida xavotirlik, hadiksirash, odamovilik, muloqotdan qochish kabi salbiy xususiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi uni mustaqil fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, muloqot erkinligi, og'zaki va yozma fikr ifodalash, matn yaratish qobiliyatini oshishiga imkoniyat yaratuvchi, ularni ilmiy - madaniy muloqot va unga o'rgatuvchi ijtimoiy psixologik treninglardan ham unumli foydalanish samarali natija beradi.

O'quvchiii matn yaratishga tayyorlash jarayoniga tatbiq etish tavsiya qilinayotgan mazkur psixologik treninglar o'quvchi ongida subyekt—subyekt shakldagi nutqiy munosabatlarning asl mohiyati, avtoritar va demokratik liderlik uslublarini nutqiy faoliyatlarida qo'llash, erkin fikr yuritish, o'z mulohazalarini aniq, to'g'ri va o'rinli bayon qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, o'quvchida monologik va dialogik nutqni o'stirish, mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ziyadova T. O'quvchilarning ijodiy— nutqiy (>aoliyatlarini rivojlanti riga omi,\lpri. «Ta'lim jarayoiida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari», O'TDA 5 —yig'ilishi tezislari, — T., 1999,74 — 77 — betlar

2. Ziyadova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda ijodiy tafakkur sohibiii tarbiyalashnin!1 pedagogik omillari, Pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy ishlar tanlovi g'oliblarining maholalar to'plami, — Toshkent, 2001, 66 —70betlar.

3. Ziyadova T. Matn ustida ishlash va matn yaratishda so'z birikmasining o'rni va ahamiyati. Yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash — ta'lim — tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish omili, Xalqaro konferensiya materiallari, — Guliston, 2003, 4 —8 —betlar